




2020- yilning yanvar-iyul oylari uchun O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida O'zbekiston Respublikasida jami **48 855,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **105,7 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda**












2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 39,1 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,1 mingtaga oshdi.







Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **111,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **58,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **129,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **9,6 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **130,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **32,4 %**) o'sishidir.




O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

| | | holatiga ko‘ra: | | O‘tgan yilga nisbatan, % da |
|---|-------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------------------|
| | | 01.08.2019- yil | 01.08.2020- yil | |
|  | O‘zbekiston Respublikasi | 33 044 | 39 125 | 118,4 |
|  | Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 2 018 | 2 235 | 110,8 |
| | viloyatlar: | | | |
|  | Andijon | 2 697 | 2 985 | 110,7 |
|  | Buxoro | 2 228 | 2 624 | 117,8 |
|  | Jizzax | 1 635 | 1 986 | 121,5 |
|  | Qashqadaryo | 2 852 | 3 193 | 112,0 |
|  | Navoiy | 1 183 | 1 527 | 129,1 |
|  | Namangan | 1 763 | 2 176 | 123,4 |
|  | Samarqand | 2 549 | 2 932 | 115,0 |
|  | Surxondaryo | 2 043 | 2 439 | 119,4 |
|  | Sirdaryo | 1 141 | 1 420 | 124,5 |

| | | | | |
|---|--------------|-------|-------|-------|
|  | Toshkent | 2 643 | 3 372 | 127,6 |
|  | Farg'ona | 2 655 | 3 074 | 115,8 |
|  | Xorazm | 1 599 | 1 837 | 114,9 |
|  | Toshkent sh. | 6 038 | 7 325 | 121,3 |


O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.07.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: respublikada soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Toshkent sh. (18,7 %), Toshkent viloyati (8,6 %) va Qashqadaryo (8,2 %) viloyatlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **13 344,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **124,5 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **4,1 %** punktga ko'payib, **27,3 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Toshkent shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **25,3 %** i yoki 2019- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **108,7 %**), Navoiy (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **23,0 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **79,3 %**), va Toshkent viloyatlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,1 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **124,8 %**) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **55,7 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,9 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **104,2 %** ni tashkil etgan holda **27 193,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **17,0 %** ni tashkil etdi yoki **8 318,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **88,3 %** ni tashkil etdi

Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **2 010,1** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **46 845,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **4,6 %** va **95,4 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





2020- yilning yanvar-iyul oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|--------------------------------------|--|----------------|----------------|-----------------|----------------|
| | | mlrd. so'm | ulushi % da | mlrd. so'm | ulushi % da |
| O'zbekiston Respublikasi* | 48 855,2 | 2 010,1 | 4,1 | 46 845,0 | 95,9 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 2 225,8 | 118,5 | 5,3 | 2 107,3 | 94,7 |
| viloyatlar: | | | | | |
| Andijon | 2 356,0 | 156,6 | 6,6 | 2 199,4 | 93,4 |
| Buxoro | 3 066,1 | 175,7 | 5,7 | 2 890,4 | 94,3 |
| Jizzax | 1 780,3 | 39,4 | 2,2 | 1 741,0 | 97,8 |
| Qashqadaryo | 2 814,7 | 152,6 | 5,4 | 2 662,1 | 94,6 |
| Navoiy | 2 360,4 | 507,8 | 21,5 | 1 852,6 | 78,5 |
| Namangan | 2 285,5 | 106,6 | 4,7 | 2 178,9 | 95,3 |
| Samarqand | 3 250,4 | 108,5 | 3,3 | 3 141,8 | 96,7 |
| Surxondaryo | 2 642,5 | 22,9 | 0,9 | 2 619,6 | 99,1 |
| Sirdaryo | 1184,1 | 47,6 | 4,0 | 1 136,6 | 96,0 |
| Toshkent | 3 337,9 | 71,6 | 2,1 | 3 266,3 | 97,9 |
| Farg'ona | 2 814,6 | 95,5 | 3,4 | 2 719,1 | 96,6 |
| Xorazm | 1 626,1 | 113,0 | 6,9 | 1 513,2 | 93,1 |
| Toshkent sh. | 10 151,3 | 293,9 | 2,9 | 9 857,4 | 97,1 |

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-iyul

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 72,7 % i yoki **35 514,4** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

72,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **11 979,9** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 33,7 % ni tashkil etdi

33,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **16 325,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 46,0 % ni tashkil etdi.

46,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **7 209,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 20,3 % ni tashkil etdi.

20,3 %




**2020- yilning yanvar-iyul oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘shish sur‘ati, % da | Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m) |
|--------------------------------------|-------------------------------------|-----------------------|--|
| O‘zbekiston Respublikasi* | 48 855,2 | 105,7 | 35 514,4 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 2 225,8 | 94,0 | 1 294,0 |
| viloyatlar: | | | |
| Andijon | 2 356,0 | 100,1 | 1 562,7 |
| Buxoro | 3 066,1 | 101,6 | 1 709,7 |
| Jizzax | 1 780,3 | 101,9 | 1 442,1 |
| Qashqadaryo | 2 814,7 | 99,2 | 1 759,7 |
| Navoiy | 2 360,4 | 100,1 | 1 633,1 |
| Namangan | 2 285,5 | 108,6 | 1 712,8 |
| Samarqand | 3 250,4 | 104,5 | 2 169,1 |
| Surxondaryo | 2 642,5 | 103,8 | 2 004,2 |
| Sirdaryo | 1 184,1 | 95,2 | 548,0 |
| Toshkent | 3 337,9 | 97,7 | 2 072,2 |
| Farg‘ona | 2 814,6 | 100,1 | 1 667,5 |
| Xorazm | 1 626,1 | 100,6 | 1 155,6 |
| Toshkent sh. | 10 151,3 | 101,3 | 7 824,3 |

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **26,7 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **5,7 %** punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga kamayib, **50,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **4,9 %** punktga kamayib, **23,1 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **39,6 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **3,8 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **60,3 %** (**3,7 %** punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,1 %** (**0,2 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **3,6 %** punktga kamaydi va **16,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **83,3 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **3,6 %** punktga ko‘paydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-iyul oylarida**

mlrd. so‘m


| | Qurilish ishlari hajmi | shu jumladan: | | |
|--|---------------------------|------------------------------------|--------------------------------------|---|
| | | Bino va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari |
| O‘zbekiston Respublikasi* | 48 855,2 | 35 922,0 | 6 978,8 | 5 954,4 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 2 225,8 | 1 448,1 | 382,4 | 395,2 |
| viloyatlar: | | | | |
| Andijon | 2 356,0 | 1 762,4 | 290,6 | 303,0 |
| Buxoro | 3 066,1 | 2 059,6 | 501,8 | 504,7 |
| Jizzax | 1 780,3 | 1 457,7 | 194,7 | 127,9 |
| Qashqadaryo | 2 814,7 | 2 106,9 | 384,5 | 323,3 |
| Navoiy | 2 360,4 | 1 796,2 | 307,1 | 257,1 |
| Namangan | 2 285,5 | 1 479,1 | 385,1 | 421,3 |
| Samarqand | 3 250,4 | 2 418,1 | 590,8 | 241,5 |
| Surxondaryo | 2 642,5 | 1 776,8 | 691,0 | 174,8 |
| Sirdaryo | 1 184,1 | 804,8 | 273,9 | 105,4 |
| Toshkent | 3 337,9 | 2 394,1 | 496,9 | 446,9 |
| Farg‘ona | 2 814,6 | 2 220,0 | 316,6 | 278,0 |
| Xorazm | 1 626,1 | 1 140,0 | 347,8 | 138,3 |
| Toshkent sh. | 10 151,3 | 6 098,7 | 1 815,6 | 2 237,0 |

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida
qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar
qurilishining ulushi, % da



Viloyatlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlar


Bino va inshootlar qurilishi,
jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 81,9 % i yoki **1457,7** mlrd. so'm), shuningdek, Farg'ona viloyati (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 78,9 % i yoki **2220,0** mlrd. so'm), Navoiy viloyati ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 76,1 % i yoki **1796,2** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Surxondaryo viloyatida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 26,1 % i yoki **691,0** mlrd. so‘m), Sirdaryo viloyati (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 23,1 % i yoki **273,9** mlrd. so‘m), Xorazm viloyati (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 21,4 % yoki **347,8** mlrd. so‘m) da qayd etildi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi, jamiga nisbati, % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Toshkent shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 20,0 % i yoki **2237,0** mlrd. so‘m), Namangan viloyati (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 18,4 % i yoki 421,3 mlrd. so‘m), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 17,8 % i yoki **395,2** mlrd. so‘m) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari


mlrd. so'm

Toshkent sh.
10 151,3

Toshkent
3 337,9

Samarqand
3 250,4

Buxoro
3 066,1



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Toshkent sh. (10 151,3 mlrd. so'm), Toshkent (3 337,9 mlrd. so'm), Samarqand (3 250,4 mlrd. so'm), Buxoro (3 066,1 mlrd. so'm) viloyatiga to'g'ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi**

Tel.: 71 202-80-56